

BOLALARGA NISBATAN IJTIMOY YORDAM

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881696>

A'zamova Zarnigor Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

o'qituvchisi

Annotatsiya.

Bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va atrof-muhit uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari, sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolatga yetishi uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushinish vaziyatida o'sishi, jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi, ayniqsa tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, huquq va erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim.

Har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamchiliklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki boshqa biron-birholatlardan qat'iy nazar hurmat qilinishi va huquqlari ta'minlanishi lozim.

Kalit so'zlar.

bola, oila, huquq, konvensiya, ota-ona, ijtimoiy.

Аннотация.

Дети имеют право на особую заботу и поддержку. Семья, считающаяся основной организацией общества и среды, отвечает за рост и благополучие всех ее членов, особенно детей, и за формирование здорового и гармоничного взрослого человека. состояние счастья, любви и сознательного понимания, быть полностью готовым к самостоятельной жизни в обществе, особенно в духе мира, достоинства, терпения, прав и свобод, равенства и солидарности. Все права защищены за каждым ребенком, независимо от расы, цвета кожи, пола, языка, религии, политических или иных убеждений, национального, этнического или социального происхождения, состояния здоровья и рождения ребенка, его матери или законного опекуна или любых других обстоятельств. и его права обеспечены

Ключевые слова.

ребенок, семья, право, условность, родитель, соц.

Ijtimoiy yordam 16 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'mirlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy yordam uni olish huquqiga ega bo'lgan har bir bolaga tayinlanadi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish miqdori, shartlari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir bolaga, bolalarning joylashtirilishi shaklidan qat'i nazar moddiy va boshqa sharoitlarni ta'minlaydi. Davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan homiylik dasturlarini qonun hujjatlariga muvofiq rag'batlantiradi.

2008-yilning yanvar oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Ushbu qonun mamlakatimizda yashayotgan har bir huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti va sog'ligini muhofa qilish, kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, sha'ni va qadr-huquqlari kafolatini ta'minlash maqsadida davlat organlari, nodavlat-notijorat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish hamda uni rivojlantirish, jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur qonunda bolaning yashash, shaxsiy daxlsizlik, oila muhiti, mulkka egalik qilish, mehnat qilish, ta'lim olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy himoyalani kabi huquqlari kafolatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Alohida qayd etish kerakki, aholida bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan quyidagi dasturiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega. Har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida yoshlar muammosi doimo diqqat markazida bo'lmoqda. Ayniqsa, 2008-yilni "Yoshlar yili", 2010-yilni "Barkamol avlod yili", 2014-yilni "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi bolalar, yoshlar va ularning tarbiyasi davlat siyosatining bosh masalasi ekanligini ko'rsatib berdi. Ayniqsa, bu borada mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan turli tadbirlar yoshlarning huquqiy madaniyatini, ularning huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugunga kelib, bizning mamlakatimizda huquqshunosligida ham inson bola huquqlari alohida fan sifatida shakllanib ulgurdi, desak adashmaymiz. Jumladan, mamlakat huquqiy adabiyotida, bola huquqlari bo'yicha dastlabki

darslik 2009-yilda chop etilgan edi. Bugungi kunda, bola huquqlari inson huquqlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarda alohida mavzu sifatida o'rganilishi bilan bir qatorda, bola huquqlariga bag'ishlangan maxsus dasrlik va o'quv qo'llanmalar tayyorlanadi va, shu asnoda mamlakatimizda bola huquqlari bo'yicha o'quv-uslubiy baza shakllana boshladi.

Bola huquqlari to'g'risidagi yangi fanning shakllanishi nazariyaning yanada rivojlanish zaruriyati va amaliyoti ehtiyojlari bilan ham bog'liq edi. Bu holat esa, o'z navbatida insonning tafakkuri va amaliyotining maxsuli hisoblangan yangi fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Umuman, bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'ziga xos milliy-huquqiy tizim shakllangan bo'lib, ayni paytda mamlakatimiz bu yo'lda dadil qadam tashlayotgan davlatlardan biridir. Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bugungi kunda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratildi. Unga ko'ra bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi ishlab chiqilib, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining izchil olib borilayotgan faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aholining bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular mexanizmlarining samaradorligi birinchi o'rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog'liqdir. Uni esa, bu boradagi ta'limsiz erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o'qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirishning muhim jihatlari. *Интернаука*, (7-2), 91-93.

2. Abduraxmonova, M., & A'zamova, Z. (2021). The world in reforming the pension system use of existing pension system models in practice. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 50-51
3. Azamova, Z., & Tursunaliyeva, E. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Their Employment. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 13, 122-126.
4. Tursunaliyeva, E., & Azamova, Z. (2022). Reintegration of Persons Returning from Labor Migration and Ensuring Their Employment. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 171-175.
5. A'ZAMOVA, Z. A. R. N. I. G. O. R., & FOZILOV, O. VOYAGA YETMAGAN BOLALARNI HUQUQ VA ERKINLIK LARI. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 91-93.
6. Zarnigor, A. Z., & Nigora, T. (2023). Yosh oilalar bilan ijtimoiy ish. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 16, 68-70.
7. Аъзамова, З., & Турсуналиева, Э. (2022). РОЛЬ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 740-745.
8. Tursunaliyeva, E., Rohila, A., Nilufar, E., & Madina, T. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 343-346.
9. Tursunaliyeva, E., & Kubayeva, I. (2023). RISK FACTORS IN RELATIVE ATTITUDE TO CHILDREN. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 347-350.
10. Shahnoza, M., & Umida, D. (2023). SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 140-143.
11. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. Research Focus, 1(2), 301-306.
12. Tursunaliyeva, E., & Sharofiddinova, R. (2023). MECHANISMS OF REHABILITATION AND TRAINING OF PERSONS WITH DISABILITIES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(3), 230-233.

13. A'Zamova, Z., & Sharipova, K. E'Zozaxon Tursunaliyeva (2022). YETIM VA OTA-ONA QARAMOG 'IDAN MAHRUM BO 'LGAN BOLALARNI MAKTABLARDA SIFATLI TA'LIM VA TARBIYA OLISHDAGI MUAMMOLARI. *Research Focus*, 1(2), 301-306.

14. Tursunaliyeva, E., & Teshaboeva, N. (2023). Mechanisms of Rehabilitation and Training of the Disabled. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 57-59.

15. Sultonova, N., & Tursunaliyeva, E. (2023). IJTIMOY ISH XODIMI FAOLIYATIDA MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING DOLZARBLIGI. *Scientific progress*, 4(1), 330-333.